

## TARBIYACHI PEDAGOGLARDA MENEJEMENTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.

*Rasulxo 'jayeva Madina Axmadjonovna*

*Nizomiy nomidagi TDPUning Maktabgacha ta'lif metodikasi kafedrasi dotsenti*

*Mirzayeva Zilola*

*Qo'qon universiteti Ta'lif muassasalari boshqaruvi II- bosqich magistiri*

**Annotatsiya:** Maqolada pedagog faoliyatining usullari, metodlarining metodologiyasi haqida so'z yuritilib maktabgacha ta'lif tashkilotida ta'lif-tarbiya, o'quv mashg'ulotlarini turli o'yinlar asosida tashkil etilishi jarayonini MTT direktorlari tomonidan nazorat qilish, kuzatish va analiz qilishi muhimligi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, texnologiya, menejment, kompetensiya, metodika, ta'lif, tarbiyachi, mashg'ulot, bolalar ,standartlari, faoliyat, tahlil, usullar.

**Аннотация:** В статье говорится о методах и методах деятельности педагога и поясняется важность надзора, наблюдения и анализа процесса организации учебно-тренировочных занятий на основе различных игр в дошкольной образовательной организации со стороны руководителей МТТ.

**Ключевые слова:** педагог, технология, менеджмент, компетентность, методика, образование, воспитатель, обучение, дети, стандарты, деятельность, анализ, методы.

**Abstract:** The article discusses the methods and techniques of the teacher's activity and explains the importance of supervision, observation and analysis of the process of organizing educational and training sessions based on various games in a preschool educational organization by the leaders of the.

**Key words:** pedagogue, technology, management, competence, methodology, education, educator, training, children, standards, activity, analysis, methods.

Hozirgi davr taqozosi maktabgacha ta'lif tashkilotlariga kata e'tibor bilan bo'lish strategiyasini talab etmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotida tarbiyachilarning pedagogic jarayonni tashkil etishdagi faoliyatida muhim konstruksiya talab etiladi. Uni trayektoriyasini tashkil etish va nazorat qilish bosqichlari maktabgachsa ta'lif tashkiloti direktori tomonidan olib borilishi muhimdir.

Pedagogik menejmentni samarali amalga oshirishda pedagogning psixologik kompetentsiyasi. Pedagogning psixologik kompetentsiyasi, ya'ni uning o'quvchilarni tushunishi, psixologik yondashuvlar va motivatsiya metodlariga asoslangan ish

usullari, menejment sifatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ta'limgarayonining samaradorligini oshiradi.

Pedagogik menejmentning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi uchun ta'limgarayonida pedagog va o'quvchilar, pedagog va ota-onalar, hamda hamkasblar o'rtaida samarali kommunikatsiya va muloqotni tashkil etish muhimdir. Bu jarayonda ochiq va samarali muloqot metodlari, fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish kabilalar katta ahamiyatga ega.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va menejment. Zamonaviy pedagogik menejmentni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalar va metodikalardan foydalanish zarur. Ular pedagogning menejmentlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Yangi texnologiyalar, masalan, onlayn ta'limgarayon, interaktiv darslar va boshqa raqamli platformalar pedagogning boshqaruv qobiliyatini oshiradi.

Tarbiyachi pedagoglarda menejmentlik sifatlarini shakllantirish metodikasi pedagogning faqat ilmiy bilimlarni uzatish emas, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ta'limgarayonini samarali boshqarish va o'quvchilarni o'z maqsadlariga erishishga yo'naltirishga qaratilgan ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday yondoshuv ta'limgarayonining barcha bosqichlarida ta'limgarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachilar o'quv mashg'ulotlarida bolalar bilimiga qo'yiladigan talabda, albatta, ularning yoshi va imkoniyatini inobatga olishi zarur. Tarbiyachi kichik guruh bolalarini ikki guruhga bo'lib mashg'ulot olib boradi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashg'ulot o'tkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi dastlabki mashg'ulotlar tarayonida guruh xonasi, qo'g'irchoq va o'yinchoqlar bilan tanishtirishi kerak. Qo'g'irchoqlar yordamida esa mashg'ulot o'tkazadi. Tarbiyachi avval bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otib bersa, keyin mashg'ulotning hamma uchun majburiyligini bolalar ongiga singdirib boradi. O'tkazilayotgan mashg'ulotlar asta-sekin murakkablashtirilib, bolalar xulqiga moslab boriladi. Bolalar mashg'ulot tarayonida axloq-qoidalarini egallab boradilar. To'g'ri o'tirish, tarbiyachi so'zini diqqat Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati bilan eshitish, chalg'immaslik, tarbiyachi so'ragandagina javob berish, javob berganda o'rnidan turish kabilalar o'rgatiladi. Mashg'ulotning sifati va uning natijasi tarbiyachi ning unga qanday tayyorlarlik ko'rganiga va pedagogik mahoratiga bog'liq. Mashg'ulotga tayyorlanish mazmuniga quyidagilar kiradi: mashg'ulotni rejalshtirish, kerakli jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish, bolalarni mashg'ulotga tayyorlash. Tarbiyachi mashg'ulotni bir bo'limdan bitta emas, balki butun bir mashg'ulotlar tizimini rejalshtirib olib borsa, ijobjiy natijani qo'lga kiritishi tabiiy. Tarbiyachi mashg'ulotlarni metodik adabiyotlardan keng foydalanilgan holda olib borishi kerak. Agar mashg'ulotlar murakkabroq bo'lsa, tarbiyachi, albatta, unga reja tuzadi. Rejada mashg'ulotning mazmuni tayyorlanish uchun kerak bo'lgan jihozlar, bolalar bilan olib

boriladigan dastlabki ishlar, mashg‘ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko‘rsatiladi. Har bir bog‘chada metodika kabinetlari mavjud, unda “ILK QADAM” maktabgacha ta’lim davlat dasturining hamma bo‘limlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi. Yetishmaganini tarbiyachi o‘zi tayyorlaydi, ba’zan esa bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalg etadi. Tarbiyachi mashg‘ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi. Tarbiyachi bolalar bog‘chasida asosiy shaxs hisoblanib, yosh avlodning tarbiyalanganligi va bilish darajasi uning g‘oyaviy, siyosiy va ilmiy pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, salohiyatiga, pedagogik mahoratiga bog‘liq. Odatda, bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ham uning tarbiyachi shaxsiga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiyachi mashg‘ulot jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalansa hamda bolaning ruhiyati, yosh va o‘ziga xos ruhiy, fiziologik xusu siyatlari inobatga olinsa, tarbiyaning samaradorligi ortadi.

Hozirgi taraqqiyotimizning talablari asosida ta’lim standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta’lim muassasalariga yetkazilib berilmoxda. Ta’lim muassasalarining moddiy bazalari jadallik bilan mustahkamlanmoqda. Yangi turdagи kasb-hunar kollejlari, universitetlar va institutlar qoshida akademik litseylar, maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, joriy va kapital ta’mirlash, yangi zamonaviy asbob-uskunalar, o‘quv qurollari, texnika vositalari va kompyuterlashtirish ishlari aniq davlat rejaliри asosida amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya, ayniqsa, mashg‘ulotlar asosanturlio‘yinlar tarzida olib boriladi. Shu sababli direktor tomonidan o‘yin faoliyatini kuzatishvatahlilqilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xil o‘yining maktabgacha yoshdagi bolashaxsinishakllantirishda alohida o‘rin egallashi, o‘yin turlarining xilma-xilligi vaularning tarbiyalanuvchilarda ijobjiy fazilatlarni qaror toptirish va rivojlanadirish xususiyatigaega kanibilan bog‘liq. Direktordan barcha o‘yinlarga xos xususiyatlarni yaxshi bilish, o‘yinjarayoninichuqur tahlil qilish va tarbiyachilarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishni taqozoetadi. Ta’kidlanganidek bolalar o‘yinlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular bolaning maktabgacha tashkilotda bo‘lgan butun davri mobaynida mazmuni, uyushtirilishi, tarbiyalanuvchi faolligi va imkoniyatlarini namoyon qilish xarakteri, bolalarga ko‘rsatadigan ta’siriga ko‘ra o‘zgarib, takomillashib boradi. Direktor o‘yin turlarini tanlashga alohida e’tibor qaratishi lozim. Xususan, direktor tarbiyachi tomonidan olib borilayotgan mashg‘ulotlarda bolaning tili, dunyoqarashi, xislatlari va fazilatlarini shakllantirishga, ijodiy imkoniyatlarini, masalan, musiqa yoki rasm chizishga qiziqishini rivojlanadirishga xizmat qiladigan o‘yinlardan qay darajada foydalanayotgani, ularning ta’lim-tarbiya maqsad-vazifalariga qay darajada

mosligi tahlil etib borilishi va zarur hollarda, o‘zbilimi va tajribasiga tayanib, tarbiyachiga tegishli ko‘rsatma hamda maslahatlar berishi lozim.U turli yoshdagagi guruh o‘yinlar tizimini «Ilk Qadam» davlat dasturi asosida ishlab chiqishi va o‘yin jarayonini kuzatish jadvalini tuzishi zarur.

Direktor barcha guruhlarda o‘yinlar asosidagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur shart-sharoit yaratilgani (o‘yinlar uchun yetarli vaqt ajratilgani, ularni to‘laqonli va qiziqarli o‘tkazish uchun joyning, o‘yinchoq, qo‘rgazmali vositalar va qo‘llanmalarining mavjudligi hamda xonalarda to‘g‘ri joylashtirilgani va hokazo) ga alohida ahamiyat berishi darkor.

Shunday qilib, direktorning bu boradagi rahbarlik faoliyati tarbiyalanuvchilarning jismoniy, intellektual va ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladigan, ularning emosional-ruhiy holati barqarorligini ta’minlaydigan rivojlantiradigan metod va usullardan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, jumladan, zarur hollarda o‘yin faoliyatini uzaytirish va murakkablashtirish orqali bolaning nutqini rivojlantirish, jismoniy va aqliy faolligini oshirish, ularda ma’naviy-axloqiy xislatlarni tarbiyalashga yo‘unaltirilmog‘i kerak.

Guruhlarda o‘yinlarning to‘laqonli va qiziqarli o‘tkazilishiga yordam beradigan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) tarbiyachining o‘yinni to‘laqonli va qiziqarli o‘tkazish hamda uni oqilona boshqarish qobiliyatiga ega ekani;
- b) o‘yinni to‘laqonli va qiziqarli tashkil etish uchun tegishli muhit va shart-sharoityaratilgani;
- v) kun tartibi rejasiga kiritilgan mashg‘ulotlarda o‘yin uchun yetarli vaqt ajratilgani.

Ma’lumki, bolalarning o‘yin jarayonidagi xatti-harakatlari ularning katta yoshli kishilargataqlid qilishga intilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun mактабгача ta’limtashkilotidaамалга oshiriladigan ta’lim-tarbiya va mashg‘ulotlar jarayonida bu jihatni e’tiborgaolishbarobarida, o‘yin orqali jismoniy, aqliy, ma’naviy jiatdan rivojlantirishga, ularningqiziqishlariva ijodiy imkoniyatlarini shakllantirishga intilish talab etiladi. Direktor faoliyatida, yuqorida tilga olingan omillardan tashqari, qiyosiy tekshiruvhammuhim o‘rin egallaydi.

Uning ahamiyati tarbiyachining pedagogik faoliyatini boshqa pedagogning ish tajribasi bilan taqqoslash (masalan, yonma-yon guruhlar tarbiyachilari ish faoliyatini solishtirish), tahlil qilish va baholashda namoyon bo‘ladi. Qiyosiy tekshiruv dasturning ayrim bo‘limlarini bajarilishini o‘rganishda turli tarbiyachilarning bilimi, ko‘nikma va malakalari hamda umuman ish samaradorligini tahlil qilishda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Qiyosiy tahlil natijalari Kuzatuv kengashida muhokama etilishi mumkin.

Qiyosiy tekshiruv guruhlarga kirish va tarbiyachilar ishlarini bevosita kuzatish, rejalar, bolalar ishlari va boshqa hujjatlarni tahlil qilish shaklida o'tkazilishi mumkin. Direktor kundalik pedagogik jarayonlarni, o'qish va mashg'ulotlarni, tarbiyalanuvchilar faoliyati, ularolayotgan bilim va ko'nikmalar sifatini tarbiyachilar bilan birga tahlil qiladi, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirishning innovatsion yo'llarini izlaydi. Qiyosiy tekshiruv ilg'or ish tajribasining ommalashuviga, ta'lim-tarbiyaviy jarayoni va barcha guruh tarbiyachilarining umumpedagogik salohiyati darajasini oshirishga yordam beradi. Nazoratning har qanday turi qo'llanishidan qat'iy nazar, unga direktor jiddiy, puxta tayyorgarlik ko'rgan holdagina kutilgan samara berishi mumkin.

### **Xulosa**

So'nggi o'n yilliklarda maktabgacha ta'lim tizimida tub o'zgarishlar ro'y berdi, bu ta'lim muassasasi rivojlanishining ushbu bosqichida o'qitish, tarbiyalash va boshqarish muammolariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tom ma'noda 56 yil oldin maktabgacha ta'lim muassasalari omon qolish yoqasida edi, ammo tartibga solish, ma'muriy, iqtisodiy sharoitlarda sodir bo'lgan katta o'zgarishlar maktabgacha ta'limning barcha bo'g'linlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'z qiyofasini topishga, o'z ishida jo'shqinlik topishga imkon beradigan mazmunli yo'nalishlarni va o'ziga xos ta'lim shakllarini izlash tendentsiyasi aniq. Yaqin-yaqingacha odat bo'lib kelgan maktabgacha ta'lim muassasalarini birlashtirish ularning turlarining xilma-xilligi, o'quv rejalarini va dasturlarining xilma-xilligi, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan almashtirildi. Rossiya ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha joriy ko'rsatmalar - mavjudlik, sifat, samaradorlik - maktabgacha ta'lim muassasalariga ortib borayotgan talablarni qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishni tashkil etish faqat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlariga hissa qo'shadigan va ularning sifat jihatidan yangi bosqichga - rivojlanish rejimiga o'tishda ifodalangan innovatsiyalarni ishlab chiqish bilan mumkin. Pedagogik tizimning tizim yaratuvchi omili boshqaruv, o'quv jarayonini boshqarish san'ati esa pedagogik boshqaruv, ya'ni. ta'lim jarayonini boshqarishning, uning samaradorligi va sifatini oshirishga ko'maklashuvchi tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari, texnologik usullari majmui. Pedagogika menejmenti pedagogika fani va ta'lim muassasalari amaliyotida o'z pozitsiyalarini endigina himoya qila boshlaydi. Pedagogik menejment o'z maqsadi sifatida ta'lim muassasalari va o'quv jarayonini boshqarishni qo'yadi, uning mohiyati shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va faoliyatni doimiy nazorat qilish va sozlash bilan yakuniy maqsadga yo'naltirishdir. Maktabgacha ta'lim muassasasida ikkita boshqaruv darajasini shartli ravishda ajratish mumkin: bosh - o'qituvchilar va xodimlar jamoasi; o'qituvchi - bolalar.

**Foydalanilgan adabiyotar.**

1. Rasulkhujaeva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. Eastern European Scientific Journal, (1).
2. Расулходжаева, М. А. (2022). Коммуникативная компетентность в деятельности педагога дошкольной образовательной организации. Национальная ассоциация ученых, (80), 30-32.
3. Rasulxojayeva M.A., Sh.O.Madaminova (2024). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda rivojlantiruvchi markazlarning bolalar psixologik jarayonlarini shakllantirishdagi ahamiyati. Vol. 17 no. 1 (2024): Лучшие интеллектуальные исследования | часть-17 | том-1
4. Rasulxo'jayeva M. A., Salimova A. A. (2024) Actual Problems and their Solutions in the Organization of Pedagogical Processes of Preschool Teachers. Vol. 55 (2024): Miasto Przyszłości
5. Rasulxo'jayeva Madina Axmadjonovna, & Ko'jageldiyeva Aziza Muxsum qizi. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH JARAYONINI TASHKIL ETISH TRAYEKTORIYASI . PEDAGOOGS Jurnali, 27(1), 39–43. Retrieved from
6. Rasulkhozhaeva M. A., Mirzabayeva G. Management Transformation of Women Leaders in Management AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 3, Issue 1, 2025ISSN (E): 2993-2769